

**BYUDJET TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI  
MABLAG'LARINING SHAKLLANISHI VA SARFLANISHI TARTIBINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

Gavhar Alimova

Toshkent bank moliya akademiyasi talabasi

[gavharalimova@gmail.com](mailto:gavharalimova@gmail.com)

**Annotatsiya:**

Ushbu maqola byudjet tashkilotlari rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining shakllanishi va sarflanishi tartibini takomillashtirish masalasini mustahkam qilish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Bu jamg'arma mablag'larini mudavvol aniqlash va moliya vazirliklarning faoliyatlarini mustahkam qilish va moliyaviy xarakterini belgilashda asosiy rol o'ynaydigan qismlarni o'z ichiga oladi.

**Аннотация:**

В данной статье представлена информация о путях усиления вопроса совершенствования порядка формирования и расходования средств фонда развития бюджетных организаций. Он включает в себя части, которые играют ключевую роль в определении средств фонда и укреплении деятельности и финансового характера министерств финансов.

**Kalit so'zlar:** byudjet, moliya, moliya vazirligi, mablag', mablag'lar tushumi.

**Ключевые слова:** бюджет, финансы, Министерство финансов, фонды, доходы фондов.

Hozirgi davrda oz sonli sotsialistax mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi davlat sektori (ijtimoiy mulk) dan tushadigan mablag'lardan, kooperativlar, xususiy korxonalar, aholidan olinadigan turli soliqlardan hosil bo'ladi va asosan xalq xo'jaligini rivojlantirish hamda ijtimoiy-maishiy tadbirlarga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti respublika davlat byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini



birlashti-radi. O'zbekistonning birinchi davlat byudjeti 1924—25-yillarda tuzilgan bo'lib, uning hajmi 3,64 mln. so'mni tashkil etgan edi.

O'zbekistonda yangi boshlanayotgan yil uchun davlat byudjeti yil yakuni (dekabr oyining oxiri)da O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida tasdiqlanadi va qabul qilingan davlat byudjeti qonun kuchiga ega bo'ladi hamda amaliyotga joriy etiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng davlat byudjetining shakllanish xususiyatlari boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi o'zgarishlar bilan bogliq holda bordi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining mutlaq ko'pchilik qismi soliqlar hisobiga olinmoqda.

1995-yilda O'zbekistonda byudjet kamomadi 3 %, 1996-yilda 3,5 %, 1997-yilda 2,2 %, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning 1 % (32,8 mlrd. so'm)ga teng bo'ldi. Amalda bo'lgan qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan byudjetdan tashqari jamg'armalar (ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi jamg'armasi, yo'l jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mul-ki qo'mitasi jamg'armasi, mineral xom ashyo bazasini tak ishlab chiqarish fondi, o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlarining maxsus fondlari)ning maqsadli yo'nalishlarini saqlab qolgan holda, 1995-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining birlashgan byudjetiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida jami daromadlar va xarajatlar o'zgarishlarida ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jaliklar va aholi daromadlarining o'sishi asosiy ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlat byudjetini shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 1-yanvardan kuchga kirgan „Davlat byudjeti tizimi to'g'risida“ qonuni (2000-yil 14-dekabr)ga muvofiq olib boriladi.

Budjet tashkilotlarining rahbarlari tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'larining to'g'ri hamda o'z vaqtida o'tkazilishi va ularning kutilmaganda o'tkazilishini ta'minlash uchun javobgardir. Ular boyliklarning haqiqatda mavjudligini qisqa muddatlarda to'liq va aniq tekshirishni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratib berishlari shart. Bosh buxgalter tegishli bo'linmalar va xizmatlar rahbarlari bilan birgalikda inventarlash o'tkazishning belgilangan qoidalariga rioya etilishini sinchiklab nazorat qilishga majbur. Tovar-moddiy boyliklarni inventarlash bilan bir vaqtda tashkilotning buxgalteriyasi tegishli barcha schyotlar bo'yicha yozuvlarni korrespondensiyalanuvchi schyotlar bilan qiyoslagan holda tekshirishi kerak.



Masalan, asosiy vositalar bo'yicha foydalanishga qabul qilingan barcha obyektlar hisobga olinganolinmagani; tovar-moddiy boyliklar bo'yicha - barcha kelib tushgan boyliklar kirim qilingan-qilinmagani, chiqib ketganlari esa hisobdan o'chirilgani va unda aks ettirilgani va hokazolar aniqlanishi zarur. Inventarlashni rasmiylashtirish uchun mol-mulk va moliyaviy majburiyatlami inventarlash bo'yicha birlamchi hisob hujjatlari shakllari qo'llanishi lozim

Byudjet tashkilotlarida hisob ob'ektlari bo'yicha byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqish. Bu orqali byudjet tashkilotlarida davlat sektori buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritish bo'yicha uslubiy ko'rsatma ishlab chiqish. Bunda faoliyat turidan kelib chiqib byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobini tashkil etishlari va yuritishlari yuqori turuvchi vazirlik va idoralar tomonidan yagona tarzda amalga oshirilishi lozim.

Byudjet tashkilotlarida nazoratni tashkil qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-son qarorida taftish va tekshirishni asosiy vazifalari aniqlangan. Byudjet mablag'larini kelib tushishi va sarflanishi, byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish, davlat mulki bo'lgan mulkdan, daromadlarni taftish hamda tekshirish rejali tartibda, rejadan tashqari tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida rejali taftish va tekshirishlar nazorat taftish bosh boshqarmasi uchun O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri, nazorat taftish boshqarmasi uchun esa nazorat taftish bosh boshqarmasi boshlig'i tasdiqlagan yillik ishlar rejasi asosida amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarida nazoratni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha nazorat taftish bosh boshqarmasi va nazorat taftish boshqarmasi taftishchilar ishi ustidan uslubiy rahbarlik hamda nazoratni amalga oshiradi, amaliy yordam ko'rsatadi.

Taftish va tekshiruvlarni o'tkazish muddati, taftish guruhi tarkibi, har bir taftish va tekshiruvni aniq vazifasidan, taftish qilinayotgan tashkilotning xususiyatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Byudjet tashkilotlarida taftish va tekshiruvlarni o'tkazish muddati – 30 kungacha qilib belgilangan. Birinchi marta belgilangan muddat taftish guruhi rahbari (taftishchi) tomonidan asoslansa, u holda muddati uzaytirilishi mumkin. Taftishda o'tgan 3 kalendar yili moliyaviy faoliyatini, oldingi taftish



o'tgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi.

Byudjet tashkilotlari taftish va tekshirilayotganda xarajatlar smetasini bajarilishi taftish qilinadi, bunda kassa va g'aznachilikda ochilgan har bir schyot bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq hujjatlar, o'tgan taftishdan keyingi davrdan hozirgi taftishgacha bo'lgan davr, agar suiiste'molchiliklar aniqlansa, undan ko'proq davrni o'z ichiga olishi mumkin.

Byudjet tashkilotlaridagi mavjud reja, hisobot, statistik ma'lumotlar hamda materiallar batafsil o'rganiladi. Taftish va tekshirishga kirishdan oldin taftish guruhi rahbari o'zining vakolati doirasida tegishli moliya va g'aznachilik organlari rahbarlariga taftish va tekshirish belgilanganligi to'g'risida axborot beradi.

Buxgalteriya hisobining obektlari tarkibidagi va funksiyalaridagi farqlanishlar ularning ustidan alohida guruhlar bo'yicha, masalan, mehnat vositalari, buyumlari, pul mablag'lari va hokazolarni kuzatish zarurligini taqozo etadi. Undan tashqari, ushbu guruhlarning ichida mablag'larning alohida turlari va ularning joylashgan joylari bo'yicha tashkil qilish kerak bo'ladi. Demak, hisob bilan alohida ajratilgan har bir mehnat vositasining turi - binolar, mashinalar, uskunalar; mehnat buyumlari - asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, yarim tayyor mahsulot va boshqalar; pul mablag'lari ularning joylashgan joylari bo'yicha hisobkitob, valyuta va bankdagi boshqa schyotlar, korxonaning kassasida qamrab olingan bo'lishi kerak. Shu bilan birga bunday guruhlash ko'pincha yetarli deb hisoblanmaydi. Masalan, mehnat buyumlarining har xil turlari, aytaylik, asosiy materiallar ustidan kuzatish ularning har bir turi, navi, katta-kichikligi va hokazolar to'g'risida ma'lumotlar olishni talab qiladi. SHunga o'xshash guruhlash buxgalteriya hisobida mablag'lar manbalari va xo'jalik jarayonlari bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobida hujjatlar xarakati, ya'ni tashkil etish yoki boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalardan hisobga, qayta ishlashga, arxivga uzatish uchun olinishi ro'yxat bilan tartibga solinadi. Hujjat aylanishi ro'yxatini tuzish ishlarini bosh buxgalter tashkil etadi va hujjat aylanishi ro'yxati korxonalar rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Ro'yxatni tuzishdan maqsad, hisob ishlarini osonlashtirish, hujjat aylanishini oqilona tashkil etishdan iborat. hujjat aylanishi ro'yxati sxema ko'rinishida rasmiylashtirilishi mumkin. Yoki jadval ko'rinishida bo'lib, qo'yidagi rekvizitlarga ega bo'ladi: hujjat nomi, hujjatni tuzish (nusxa soni, rasmiylashtiruvchi ma'sul, bajarilishga ma'sul, bajarilish muddati)



hujjatni tekshirish (tekshirishga ma'sul, kim keltirishi, keltirish tartibi, keltirish muddati), hujjatni qayta ishlash (kim bajarishi, qayta ishlash muddati) arxivga berish (kim beradi, berish muddati), hamda ro'yxatni tasdiqlash buyrig'i tartib raqami va muddati, korxonalar muhri, korxonalar bosh buxgalteri va rahbari imzosi .

Korxonalar xodimlari hujjat aylanishi ro'yxatiga asosan, ular faoliyatiga taalluqli hujjatlarni tuzadi va takdim etadi. hujjatni o'z vaqtida to'g'ri to'ldirilishi, belgilangan, muddatda takdim etilishi , ulardagi ma'lumotlar ishonchligiga javobgarlik shu hujjatni tuzgan va imzo chekkan shaxsga yuklatiladi. Korxonalar bo'yicha hujjat aylanishi ro'yxati bo'yicha ishlar o'z vaqtida bajarilishini bosh buxgalter nazorat etib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgaltetriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2016 y. 13 aprel
2. "Buxgalteriya hisobida xujjatlar va xujjatlar aylanuvi to'g'risidagi Nizom" O'z.R AV. tomonidan 2004 yil 14 yanvarda № 1297-son bilan ro'yxatdan o'tgan.
3. "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom O'z.R AV. tomonidan 2010 yil 19 noyabrda № 2157-son bilan ro'yxatdan o'tgan.
4. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnoma O'z.R AV. tomonidan 2010 yil 22 dekabrda № 2169-son bilan ro'yxatdan o'tgan;
5. Tuychiev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIYA" 2019.329 b.
6. Ostanuqulov M. Byudjet hisobi. Darslik. – T: Talqin. 2008.

